

Qoraqalpog‘iston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko‘rsatkichlari


2025-yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I.** Qoraqalpog‘iston Respublikasi kichik tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma‘lumot
- II.** Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III.** Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari
- IV.** Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari
- V.** Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI.** Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama‘lumotlar

I. Qoraqalpog‘iston Respublikasi kichik tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma‘lumot

2025- yilning 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 19 060 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma‘lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta‘minlash maqsadida Soliq qo‘mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro‘yxatidan o‘tgan yuridik

**Shahar va tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan
kichik korxona va mikrofirmalar soni**

	2024- yil 1- oktabr holatiga, birlik	2025-yil 1- oktabr holatiga, birlik
Qoraqalpog'iston Respublikasi	20 200	19 060
Amudaryo	1 773	1 536
Beruniy	1 829	1 715
Bo'zatov	337	300
Qorao'zak	526	437
Kegeyli	649	601
Qo'ng'iro't	1 154	1 068
Qonliko'l	552	538
Mo'ynoq	519	525
Nukus	758	734
Taxiatosh	591	573
Taxtak'o'pir	328	251
To'rtko'l	2 300	2 058
Xo'jayli	1 035	963
Chimboy	871	806
Shumanay	416	460
Ellikqal'a	1 522	1 313
Nukus sh.	5 040	5 182

**Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni**




shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar birxillashtirilgan ma'lumotlar.

II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025- yilning yanvar-sentabrda 2 730 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2025- yilning yanvar-sentabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 946 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 473 ta, sanoatda 378 ta hamda boshqa xizmatlarda 347 ta tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



■ Iqtisodiy faoliyat turlari



**Shahar va tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalar soni**


	2024- yil yanvar-sentabr oylarida, birlik	2025-yil yanvar-sentabr oylarida, birlik
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 603	2 730
Amudaryo	214	156
Beruniy	274	224
Bo'zatov	59	38
Qorao'zak	43	59
Kegeyli	69	93
Qo'ng'iro't	151	137
Qonliko'l	75	99
Mo'ynoq	75	103
Nukus	96	90
Taxiatosh	62	87
Taxtakopir	44	30
To'rtko'l	253	188
Xo'jayli	116	140
Chimboy	91	101
Shumanay	106	139
Ellikqal'a	226	188
Nukus sh.	649	858

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi

2025- yilning yanvar-sentabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 64,1 % ni tashkil qilib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 63,6 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 8 229,4 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi, ya'ni sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 40,6 % ini tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Bo'zatov tumani (100,0 %), Beruniy tumani (98,9 %), Ellikqal'a tumani (79,5 %), Xo'jayli tumani (83,0 %) va To'rtko'l tumani (74,3 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 6 303,8 mlrd so'mni, ya'ni qurilish ishlari umumiy hajmining 86,3 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan 108,2 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus sh. (93,8 %), Amudaryo tumani (97,2 %) va Xo'jayli (98,8 %) tumanlariga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi dinamikasi



2025- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 7 941,4 mlrd so'mni, ya'ni umumiy hajmidagi ulushi 45,1 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan 169,3 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Shumanay tumani (90,2%), Taxtako'pir tumani (83,8 %), Kegeyli tumani (79,6 %) va To'rtko'l (77,9%) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2025- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 11 764,9 mlrd so'mni, ya'ni umumiy hajmidagi ulushi 97,0 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 103,4 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Kegeyli tumani (100,0 %), Xo'jayli tumani (99,9 %), Qo'ng'iro't tumani (99,6 %) va Qonliko'l (98,4 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 10 299,7 mlrd so'mni, ya'ni umumiy hajmining 97,3% ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan 109,9 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Qonliko'l tumani (100,0 %), Qorao'zak tumani (99,8 %), Nukus tumani (96,6 %) va Taxtako'pir (99,8 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 17 147,3 milliard so'mni, ya'ni umumiy hajmining 72,6 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan 113,1 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Mo'ynoq tumani (85,0 %), Taxtakopir tumani (77,6 %), To'rtko'l tumani (73,5 %), Qorao'zak tumani (72,0 %) va Xo'jayli (72,2 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2025- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 129 460,8 ming AQSH dollarini, ya'ni umumiy eksport hajmining 42,0 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-sentabrida Shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bozatov, Qorao'zak, Taxtako'pir va Ellikqal'a tumanlarida – 100,0 %, ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025- yilning yanvar-sentabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 147 238,0 ming AQSH dollarini, ya'ni jami importning 70,8 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-sentabrida Shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Amudaryo, Beruniy, Bozatov va Ellikqal'a tumanlarida – 100,0 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2025- yilning yanvar-sentabrda avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,1 % ni tashkil etdi. 2024- yilning ushbu davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,7 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 93,7 % ni tashkil etgan bo'lib, 2024-yilning ushbu davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,7 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,3 % ni tashkil etib, 2024- yilning ushbu davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,8 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,0 % ni tashkil etib, 2024- yilning ushbu davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,9 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi




V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar- sentabrida 42,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar- sentabrida esa 41,2 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar- sentabrida 49,7 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar- sentabrida 52,1 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar- sentabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2025- yilning yanvar- sentabrida 44,4 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2025- yilning yanvar-sentabrida 52,8 % ni tashkil qildi.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2025- yilning yanvar-sentabriga kelib, bu ko'rsatkich 2,8 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar- sentabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025- yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sanoatda – 44,7 % ni, qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 32,6 % ni va savdoda – 40,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilishda – 54,5 % ni, xizmatlar sohasida – 65,2 % ni va qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 63,9 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi – sanoatda 9,1 %, savdoda – 7,3 % ni va qurilishda – 6,9 % ni tashkil etdi.



**Biznesga ishonch muhitini baholash
(o‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar)**





VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Tayyorlash uchun mas'ul:

Tadbirkorlik subyektlari
kuzatuv bo'limi

Ijrochi:

Sh. Kazakova
61 222-78-21 (9530)

Manzil:

Nukus sh., A.Dosnazarov
ko'chasi, 97a.
